



SUV RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA SOLIQ MEKANIZMLARINING O'RNINI VA AHAMIYATINI OSHIRISH MASALALARI

ISSUES OF ENHANCING THE ROLE AND IMPORTANCE OF TAX MECHANISMS IN THE EFFICIENT USE OF WATER RESOURCES

¹Boymurotov Sodiq Rozziqovich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanishning amaldagi holati va undan tejab-tergab samarali foydalanish bo'yicha belgilangan tadbirlar hamda ularning natijadorligi tahlil qilinib, suv resurslaridan unumli foydalanishda soliq mexanizmlarini qo'llashning ahamiyati o'rganilib, kelgusida suvdan samarali foydalanish bo'yicha amalga oshirilishi zurrur bo'lgan taklif va tavsiyalar berilgan.

Eng. - In this article, the current state of water resources use in our country and the measures set for efficient use of water resources and their effectiveness are analyzed, the importance of using tax mechanisms in the efficient use of water resources is studied, and it is necessary to implement them in the future for efficient use of water. suggestions and recommendations are given.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ suv resurslari, suvdan samarali foydalanish usullari, yer osti suvlari, yer usti suvlari, suv havzalari, sug'oriladigan yerlar, suvni boshqaruvini avtomatlashtirish, tomchilab sug'orish texnologiyasi.

❖ water resources, efficient water use methods, groundwater, surface water, water basins, irrigated lands, water management automation, drip irrigation technology.

Kirish.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Suv resurslari qo'mitasi prognozlariga ko'ra, dunyoda qishloq xo'jaligi uchun asosiy suvga bo'lgan talab 2050-yilga kelib 50 foizga oshadi [1]. Bu asosan o'sib borayotgan aholi ehtiyojlarining ortishi bilan bog'liq bo'lib, suvni noto'g'ri boshqarish, undan samarasiz foydalanish va iqlim o'zgarishi tufayli global chuchuk suv zaxiralari doimiy ravishda kamayib bormoqda. Dunyoning ko'plab hududlarida suv tanqisligi va suv sifati bilan bog'liq muammolar kelajakdagi oziq-ovqat

xavfsizligi hamda ekologik barqarorlikka jiddiy tahdid solmoqda.

Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sektori global chuchuk suv iste'molining asosiy iste'molchisi bo'lib, jami suv sarfining taxminan 70 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun sarflanadi. Dunyodagi suv sifati, oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik beqarorlik kabi muammolar mamlakatimizni ham chetlab o'tmaydi.

Mazkur muammolarning oldini olish maqsadida mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ko'plab tadbirlar belgilab

kelinmoqda. Xususan, "Quyi bo'g'inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror shular jumlasidan bo'lib, unda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali aholi ongida shakllangan "suv – tekin" tushunchasidan voz kechish hamda suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish tadbirlari ko'zda tutilgan.

Qarorga muvofiq, Suv xo'jaligi vazirligi negizida "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari tashkil etilib, iste'molchilarga belgilangan limit bo'yicha suv yetkazib berish, o'ziga birlashtirilgan hududda suvning hisobi va hisobotini yuritish, gidrotexnik inshootlarni soz holatda saqlash va ularni hisobga olish vositalari bilan jihozlash, suv monitoringi, hisobi va hisobotini yuritishni raqamlashtirish, iste'molchilar kesimida iste'mol qilingan suv hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq organlariga taqdim etish mazkur xizmatning asosiy vazifalari etib belgilandi.

Endilikda, Suv xo'jaligi va Qishloq xo'jaligi vazirliklari birgalikda har yili 25-martga qadar vegetatsiya davri uchun hamda 25-sentabrga qadar kuz-qish davri uchun suv manbalarining hududlar kesimida qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish uchun suv olish limitlarini belgilab, har yili 1-aprelga qadar ushbu suv olish limitlarini hududlar bo'yicha tasdiqlash uchun xalq deputatlari tuman Kengashlariga kiritadilar.

O'z navbatida, yangidan tashkil etilgan "Suv yetkazib berish xizmati" va uning hududiy muassasalari ushbu belgilangan limitlar doirasida foydalanilgan suvning hisob-kitobini yuritadilar va uni nazorat qiladilar. Shuningdek, iste'mol qilingan suv hisobini yuritmagan, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy qilmagan iste'molchilarga suv solig'i bazasini tuman Kengashlari tomonidan tasdiqlangan limitga nisbatan oshirilgan stavkalarda hisoblash,

aksincha, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy qilib, sug'orish uchun olingan suv hajmini ushbu texnologiyalar asosida aniqlaydigan iste'molchilarga suv solig'i stavkasiga 0,5 kamaytiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llash yuzasidan hududiy soliq organlariga ma'lumotlar kiritib boradilar.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Amerikalik iqtisodchi, Nobel mukofoti sovrindori, professor Elinor Ostrom o'z tadqiqotlarida tabiiy resurslarni, jumladan suv resurslarini samarali boshqarishda iqtisodiy rag'batlantirish va mahalliy institutlarning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, suvdan foydalanish xarajatlarini foydalanuvchilar zimmasiga adolatli taqsimlash resurslardan oqilona foydalanishga olib keladi. Soliq va to'lov mexanizmlari suvdan ortiqcha foydalanishni cheklaydi, suvni tejoychi texnologiyalarni joriy etishga rag'bat yaratadi hamda suv resurslarini uzoq muddatli boshqarish samaradorligini oshiradi [2]. Fikrimizcha, suv resurslaridan foydalanishda iqtisodiy javobgarlikni kuchaytirish va differensial soliq mexanizmlarini joriy etish suv iste'moli samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Avstraliyalik olim Jeffrey D. Connor suv resurslarini boshqarish bo'yicha tadqiqotlarida suv narxlari va soliqlarining to'g'ri shakllantirilishi suvdan foydalanish samaradorligini oshirishini qayd etadi. Uning fikriga ko'ra, suvning iqtisodiy qiymatini belgilash va suvdan foydalanish uchun tabaqalashtirilgan to'lovlarni qo'llash fermerlarni suvni tejoychi texnologiyalarga investitsiya kiritishga undaydi. Bu esa suv tanqisligi sharoitida qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlaydi [3]. Fikrimizcha, O'zbekistonda ham suv solig'i stavkalarini suv sarfi darajasi va qo'llanilayotgan texnologiyalarga bog'liq holda differensial belgilash maqsadga muvofiqdir.

Isroillik suv iqtisodchisi Ariel Dinar o'z ilmiy izlanishlarida suv resurslaridan

foydalanishda iqtisodiy vositalar, xususan soliqlar va tariflarning ahamiyatini alohida e'tirof etadi. Olimning ta'kidlashicha, suvdan foydalanishning haqiqiy qiymatini aks ettiruvchi soliq mexanizmlari resurslarning isrof bo'lishini kamaytiradi va ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, suv narxini bosqichma-bosqich oshirish suvni tejashga xizmat qiladi [4]. Fikrimizcha, suv resurslarining cheklanganligi sharoitida ekologik omillarni hisobga oluvchi soliq mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Britaniyalik iqtisodchi David Pearce ekologik soliqlar nazariyasida tabiiy resurslardan foydalanish uchun iqtisodiy javobgarlikni kuchaytirish zarurligini asoslab beradi. Olimning fikricha, resurslardan foydalanishga nisbatan qo'llaniladigan soliqlar va ekologik to'lovlar iste'molchilarning xulq-atvorini o'zgartirib, resurslarni tejashga xizmat qiladi. Ayniqsa, suv resurslaridan foydalanishda "ifloslantiruvchi to'laydi" tamoyili iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi [5]. Fikrimizcha, suv resurslaridan foydalanish bo'yicha soliq siyosatini ekologik tamoyillar asosida takomillashtirish mamlakatda suv xavfsizligini ta'minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanishda iste'mol qilingan suv hajmi va undan undirilgan soliq tushumlari hamda ularning samaradorlik darajalariga doir ma'lumotlar va ularni tahlillari amalga oshirilib, ilmiy xulosalar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, suv iste'moli hisobini aniq yuritish va suvdan foydalanish samaradorligini oshirish zamonaviy suv xo'jaligi tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa,

qishloq xo'jaligida suv resurslari iste'molining yuqori ulushga egaligi suvdan foydalanish jarayonlarini doimiy monitoring qilish, suv sarfini aniq hisobga olish hamda ushbu ma'lumotlarni iqtisodiy va fiskal mexanizmlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, suv iste'molining zamonaviy avtomatlashtirilgan hisobini yuritish tizimlarining joriy etilishi suv yo'qotishlarini qisqartirish, iste'mol qilingan suv hajmini aniq belgilash va suvdan foydalanish intizomini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda suv hisoblagich qurilmalari bilan ta'minlanish darajasining yetarli emasligi, suv sarfi to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liq raqamlashtirilmaganligi hamda ma'lumot almashish tizimlarining integratsiyalashuv darajasi pastligi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, iste'mol qilingan suv hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarning vakolatli organlarga o'z vaqtida va ishonchli taqdim etilishi suv solig'i bazasini to'g'ri shakllantirish, suvdan foydalanishda iqtisodiy rag'bat va javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish imkonini beradi. Natijada suvdan tejamkor foydalanayotgan iste'molchilarni rag'batlantirish va suv resurslaridan samarasiz foydalanayotgan subyektlarga nisbatan ta'sirchan iqtisodiy choralarni qo'llash uchun zarur institutsional asos yaratiladi.

Shunday qilib, suv iste'molini raqamli monitoring qilish tizimini takomillashtirish, suv hisobini to'liq avtomatlashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish bilan bog'liq ma'lumotlar bazalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, suv resurslarini tejash va soliq mexanizmlarining ta'sirchanligini kuchaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

«Suv yetkazib berish xizmati» davlat muassasalari tomonidan iste'molchilarga belgilangan limit bo'yicha suv yetkazib

berilishi, zamonaviy avtomatlashtirilgan suv hisoblagich asboblari orqali suvning hisob-kitobi yuritilishi hamda iste'molchilar kesimida iste'mol qilingan suv hajmi to'g'risidagi

ma'lumotlarning soliq organlariga taqdim etilishi holati tahlil qilinganda quyidagilarni kuzatish mumkin.

1-jadval

2023–2025-yillarda avtomatlashtirilgan suv hisoblagichlari orqali suvning hisob-kitobini yuritishga o'tgan va belgilangan limit doirasida iste'mol qilingan suv hajmi to'g'risida ma'lumot*

Yillar	Jami suvdan foydalanuvchi soliq to'lovchilar	Shundan, suv hisoblagich o'rnatib yagona avtomatlashtirilgan tizimga o'tgan soliq to'lovchilar	Jami soniga nisbatan foiz (%)	Jami foydalanilgan suv hajmlari (mln m ³)	Shundan belgilangan limit doirasida foydalanganlar	Avtomatik tizimga o'tganlarga nisbatan foiz (%)	Belgilangan limitdan ortiqcha foydalanuvchilar soni
2023	139191	11321	8,1	1987,7	8490,7	74,9	2830,3
2024	146986	21357	14,5	4365,3	17512,4	82,1	3844,6
2025	153518	70150	45,6	11355,8	62432,8	88,9	7717,2

*Jadval O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, jami suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar orasida suv resurslari hisobini yuritishning yagona avtomatlashtirilgan tizimga o'tgan soliq to'lovchilar ulushi 2023-yilda 8,1 foizni, 2024-yilda 14,5 foizni va 2025-yilda 45,6 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, ushbu tizimga ulangan iste'molchilar tomonidan belgilangan limit doirasida suvdan foydalanganlar ulushi 2023-yilda 74,9 foizni, 2024-yilda 82,1 foizni va 2025-yilda 88,9 foizni tashkil etganligi kuzatiladi.

Shu bilan birga, jadval ma'lumotlari avtomatlashtirilgan tizimga ulangan suv iste'molchilari orasida ham Kengashlar tomonidan belgilangan limitdan ortiqcha suv iste'moli holatlari yil sayin ortib borayotganini ko'rsatadi. Bu esa suv resurslaridan foydalanish jarayonida nazorat mexanizmlarining mavjudligiga qaramasdan, ayrim holatlarda rejalashtirish va amaliy iste'mol o'rtasida tafovutlar saqlanib qolayotganini anglatadi.

Mazkur holatlar suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy suv o'lchagich asboblari o'rnatish va yagona avtomatlashtirilgan nazorat tizimiga ulash iqtisodiy hamda tashkiliy jihatdan samarali

ekanligini ko'rsatadi. Biroq, joylarda vakolatli idoralar tomonidan suv limitlarini belgilash jarayonida ekin turlari, ularning suvga bo'lgan ehtiyoji hamda hududlarning agroiqlimiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish zarurligini anglatadi.

Shuningdek, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tomonidan suv limitlarini tasdiqlash jarayonida suv iste'molchilari faoliyati, ularning ishlab chiqarish yo'nalishlari va suvdan foydalanish maqsadlari bo'yicha batafsil tahlilga asoslangan qarorlar qabul qilinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Tahlillar suv resurslarini avtomatlashtirilgan hisobga olish tizimi kengayib borayotganini ko'rsatadi va tizimga ulangan iste'molchilar ulushi ortishi suv hisobining shaffofligini oshirmoqda, shu bilan birga limitdan ortiqcha suv iste'moli holatlari hali ham saqlanib qolmoqda, bu esa suv resurslarini rejalashtirish va taqsimlashda ayrim kamchiliklar mavjudligini bildiradi, shuning uchun suv limitlarini belgilashda ekin turlari va suv ehtiyoji chuqur tahlil qilinishi lozim, shuningdek mahalliy Kengashlar tasdiqlash jarayonida iqtisodiy va agrotexnik asoslarni kuchaytirishi zarur, suv hisobining

raqamli tizimini to'liq joriy etish esa nazorat samaradorligini oshiradi, umuman olganda suv resurslaridan samarali foydalanish uchun

integratsiyalashgan boshqaruv tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *United Nations World Water Assessment Programme. The United Nations World Water Development Report 2020: Water and Climate Change. – Paris: UNESCO, 2020. – 206 p.*
2. *Ostrom E. Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 280 p.*
3. *Connor J.D., Dinar A. The Political Economy of Water Pricing Reforms. – Washington: The World Bank, 2009. – 412 p.*
4. *Dinar A. The Political Economy of Water Pricing Reforms. – New York: Oxford University Press, 2000. – 404 p.*
5. *Pearce D., Turner R.K. Economics of Natural Resources and the Environment. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1990. – 378 p.*